

ENERGIYA TEJAMKORLIK VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Xamroqulova Evelina

NamQI talabasi

Uzbekistan526@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada energiya tejamkorlik va uni samaradorligini oshirish, energiya resurslaridan samarali foydalanish, sohalarining optimal ishlashi va rivojlanishining mexanizmini shakllantirish va yo'llarini qidirish haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit So'zlar: *ratsional, evolyutsion, yoqilg'i-energetika, IEM, ekologik xavfsizligini.*

Abstract: *This article provides information on energy saving and increasing its efficiency, effective use of energy resources, formation of a mechanism for optimal operation and development of industries and search for ways.*

Key words: *rational, evolutionary, fuel and energy, IEM, environmental safety.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация по энергосбережению и повышению ее эффективности, эффективному использованию энергоресурсов, формированию механизма оптимального функционирования и развития отраслей и поиску путей.*

Ключевые Слова: *рациональный, эволюционный, топливно-энергетический, ИЭМ, экологическая безопасность.*

Insoniyat hayoti davomida tabiat tomonidan minglab yillarda to'plangan energiyadan foydalanib kelinmoqda. Bunda ushbu energiyadan foydalanish usullari, undan maksimal samaradorlik olish maqsadida doimo takomillashib bormoqda. Energetika insoniyat hayotida muhim rol o'ynaydi. Inson faoliyatining barcha turlari energiya sarfi bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, inson o'zining evolyutsion rivojlanishining boshida faqat o'z tanasi miishaklarining energiyasidan foydalangan.

Energiya resurslaridan samarali (ratsional), ya'ni oqilona foydalanishga qaratilgan jarayonlar majmui - energiya samaradorligiga beriladigan birlamchi ta'rifdir. Binolarning energiya ta'minoti yoki ishlab chiqarish jarayonlari uchun kamroq energiya sarflash evaziga kerakli natijaga erishish ham samaradorlik ko'rsatkichi hisoblanadi. Texnika va texnologiya rivojlanishining hozirgi darajasida yoqilg'i-energetika resurslaridan foydalanishda iqtisodiy jihatdan asoslangan samaradorlikka erishish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga rioya qilish ham shular jumlasidan. Energiya samaradorligiga oid tushuncha va bilimlar majmui



muhandislik, iqtisod, huquq va ijtimoiy sohalar chorrahasida qaror topadi va har bir jamiyat uchun “lozim qiyofa”da shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasi energetika siyosatining asosiy maqsadi IEM sohalarining optimal ishlashi va rivojlanishining mexanizmini shakllantirish va yo‘llarini qidirishdan iborat hamda atrof-muhit ekologik xavfsizligini saqlagan holda, rivojlangan Yevropa davlatlari yuqori hayot darajasi va sifati standartlariga vetishish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta‘minlaydigan, aholi va iqtisodiyotning barcha sohalarini ishonchli hamda samarali energiya bilan ta‘minlashni texnik amalga oshirishdan iborat. Yoqilg‘i energetika majmuasi (YoEM) aholi hayot darajasini ko‘tarish va iqtisodiyot ishlashini ta‘minlaydigan O‘zbekiston Respublikasi xalq xo‘jaligining eng muhim strukturasi tashkil etuvchisidir. YoEM o‘z ichiga energiya tashuvchilarning barcha turlari: gaz, neft va uni qayta ishlash mahsulotlari, qattiq yoqilg‘i, elektr va issiqlik energiyalarini qazib olish, uzatish, saqlash. ishlab chiqarish va taqsimlashni oladi. Majmua sohalari respublika xalq xo‘jaligida muhim o‘rin egallaydi.

Elektr energetika - strategik soha bo‘lib, uning holati butun davlatning rivojlanish darajasida aks etadi. Hozirda elektr energetika O‘zbekiston iqtisodiyotida bir tekis ishlayotgan majmuadir.

Bizning davlatimiz energetika siyosatining yuqori ustunligi jamiyatning energiya ta‘minotiga bo‘lgan xarajatini pasaytirish uchun vosita sifatida. energiyadan foydalanish samaradorligini oshirish, mamlakatning ustuvor rivojlanishini ta‘minlash va ishlab chiqarish kuchlarining raqobatbardoshligini oshirishdan iborat. Shuning uchun elektr energetika sohasi doimo Respublika hukumati va Prezidentimizning nazoratidadir.

O‘zbekiston elektr energiyasining asosiy iste‘molchisi sanoat bolib uning ulushiga mamlakat bo‘yicha elektr energiya iste‘moli umumiy darajasining 50% i to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston issiqlik energiyasining asosiy iste‘molchisi uy-joy - kommunal xo‘jaligidir. Uning ulushiga iste‘mol qilinayotgan issiqlik energiyasining 57% to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston energetika tizimida elektr energiyani ishlab chiqarishda asosiy yoqilg‘i turi tabiiy gaz boiib, uning ulushi 80% ni tashkil etadi. O‘zbekiston yoqilg‘i-energetika majmuasining holatini xarakterlaydigan asosiy holatni tahlil qilib. bizning respublikamizda energiya tejamlash siyosatini o‘tkazish zarurligini belgilaydigan quyidagi sabablarni ajratish mumkin:

- mahsulotning energiya sig‘imligini pasaytirish;
- yoqilg‘ining foydali ishlatish koeffitsiyentini oshirish;



- respublika yoqilg'i balansida noan'anaviy tiklanuvchan manbalarning ulushini oshirish.

Energiya tejamkorligi va samaradorligi oddiy, ko'z ilg'amas mayda tushunchalar yig'indisi orqali shakllangani bilan energetika, shaharsozlik, uy-joy kommunal tizimiga, sanoat korxonalaridan tortib kichik va o'rta biznes ob'yektlariga zamonaviy, raqamli dasturlar asosida ishlaydigan uskuna va jihozlar kirib kelmas ekan - energiya tejamkorligi va samaradorligi borasidagi harakatlarimiz teshik tog'orada suv tashigan bilan barobar.

XULOSA

Keyingi paytlarda energiyani tejash butun dunyoda ham xalqaro, ham davlat siyosatining asosiy masalalaridan biri bo'lib qoldi. Biz iste'molchi sifatida o'z haq-huquqlarimizdan to'liq foydalanishni istar ekanmiz, iste'molchi sifatida, mamlakat fuqarosi, shu aziz tuproqning bir farzandi sifatida energiya tejamkorligi va samaradorligi bo'yicha o'z vazifa-majburiyatlarimizni ham ado etishimiz shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 5310200 - «Elektr energetikasi (tarmoqlar va yo'nalishlar bo'yicha)» yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.

2. Myers Cathi. Inventory of northwest conservation programs// Trecola Ruth. Portland Ore.; 1987 - P. 1-115 - A/I-A/6. FlepeneHb 3HeprocOeperafoinkX nporpaMM ceBepo-sauajuibix uiTaTOB C1UA.

3. Em da OyMucuzs. Kvkh TeBa shcsh KoraKy//J. Soc.Heat Aircond and Sanit. Eng.Jap. - 1987 - 61 - Ne2. - P. 107-116. (3H eproc6eperaKDinnii npoeKT M oonlinght, ilnoHHa).

